



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2023 - yil 25 - noyabr

165-5-0-F/23

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli qaroriga muvofiq, viloyat hududida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, korrupsiya holatlarining oldini olish, bunday illatga qarshi murosasizlik immunitetini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Navoiy viloyati hokimligi tomonidan tasdiqlangan “Viloyat hokimligi va uning bo‘ysunuvidagi tashkilotlar tizimida korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash va chuqur tahlil qilish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan yo‘l xaritasi” (12-01/694-son, 15.11.2023 y.) ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda korrupsiya holatlarining oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida, “Aksilkorrupsiya oyligi” munosabati bilan 2023-yilning 9-dekabr kuniga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish” profilaktik tadbiri (keying o‘rinlarda - profilaktika tadbiri) o‘tkazilsin.

3. Quyidagilar:

2023-yilning 9-dekabriga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish”

profilaktik tadbiri davomida shahar va tuman hokimliklarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy targ'ibot (seminar-trening)larni o'tkazish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

huquqiy targ'ibot (seminar-trening)larda tavsiya etilgan mavzular ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat sudi va viloyat prokuraturasi tomonidan 2022-yil va 2023-yilning 9 oyligidagi:

hududlar va sohalar kesimida korrupsiyaviy jinoyatlar va huquqbuzarliklarni tahlil etish orqali ularning sabablari va omillarini aniqlash, tahlil natijalariga ko'ra, korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan soha va hududlarda korrupsiyani minimallashtirish yuzasidan;

korrupsiyaviy jinoyatlarga oid statistik ma'lumotlarni, tugallangan jinoyatlar bo'yicha sud hukmlari materiallarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga oid murojaatlarini o'rganish, tahlil qilish hamda muammo va kamchiliklarni o'rganish orqali asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilsin hamda taqdim etilsin.

5. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (O. Rabbimov), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish viloyat hududiy boshqarmasi (A. Muxammadiyev) hokimliklarda va uning bo'ysunuvidagi tashkilotlarda davlat xaridlarini o'tkazishda (tender va eng yaxshi takliflarni tanlash) davlat xaridlari va raqobatga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilganlik holatini o'rganish, xususan davlat xaridlarida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish, o'rganish natijalariga ko'ra mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif tayyorlasin hamda taqdim etsin.

6. "Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'linmasi (G. Aliyev)ga profilaktik tadbir davomida tegishli mutasaddilar bilan birgalikda:

viloyatda fuqarolar va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga nisbatan munosabatini ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish orqali o'rganish;

korrupsiya masalalari bo'yicha hududiy va soha darajasida tadqiqotlar, jumladan, jamoat fikri so'rovlari va ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish tavsiya

etilsin.

7. Viloyat adliya boshqarmasi (G‘. Primov):

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan seminarlar va “davra suhbatlari” tashkil etish orqali manzilli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazsin;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga, fuqarolarni qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasizlik munosabatini singdirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini olib borsin;

korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari hamda tashkilotlar mansabdor shaxslarining huquqiy savodxonligi va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlar ishlab chiqsin va amalga oshirilishini ta’minlasin;

tegishli mutasaddilarni jalb qilgan holda 9-dekabr “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan viloyat hududidagi ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazilishini tashkil etsin va ushbu tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin.

8. Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (U. Baxromov) ta’lim muassasalari bilan birgalikda korrupsiyaning jinoyat ekanini va unga nisbatan toqatsiz bo‘lish g‘oyasini yoshlar o‘rtasida “tengdosh-tengdoshga” tamoyili asosida targ‘ib qilish, shuningdek, “Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish biz - yoshlarning kundalik hayot tarziga aylanishi shart” tamoyilida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

9. Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan viloyat prokuraturasi, ichki ishlar bosh boshqarmasi, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari, viloyat teleradiokompaniyasi bilan birgalikda **“Korrupsiya sohasidagi qonunchilik yangiliklari”**, **“Korrupsiya – jamiyat kushandasi”**, **“Korrupsiyaga qarshi kurashish**

barchamizning burchimiz”, “Biz korrupsiyaga qarshimiz!” kabi mavzularda 5 ta ijtimoiy va animatsion videorolik hamda huquqiy targ‘ibot materiallari tayyorlansin hamda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga yetkazib borilsin.

10. Shahar va tuman hokimliklari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi 235-5-0-Q/22-sonli qarorida nazarda tutilgan baholash mezonlariga asosan ma’lumotlarni tayyorlash va axborot xizmatlari tomonidan hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–81-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi 235-5-0-Q/22-sonli qarori ijrosi bo‘yicha mazkur farmoyish 3-5-ilovalariga muvofiq, 5 ta yo‘nalish 29 ta indikatorlar bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi 235-5-0-Q/22-sonli qarori ijrosini muddatida va sifatli bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho‘basi (F. Xasanov)ga taqdim etib borsin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida tayyorlangan ijtimoiy roliklarni tuman va shahar markazlaridagi LED ekranlar, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari, davlat idoralarida ijtimoiy reklama sifatida joylashtirish, shuningdek, targ‘ibot materiallarini tashqi reklama obyektlariga ichki

imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda chop etilishini va aholi gavjum joylarga o'rnatilishini ta'minlasin.

11. Viloyat teleradiokompaniyasi (G'.Sultonov), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, (D. Mamarajabov), "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalari tahririyati (B. Umarov)ga ommaviy axborot vositalari orqali viloyat hududidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

12. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari T. Atamurodov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2023-yil 25-noyabrda
165-5-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

1-ilova

2023-yil 9-noyabrdan 9-dekabr gacha “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyli” profilaktik tadbiri davomida shahar va tuman hokimliklarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot (seminar-trening)larni o‘tkazish

R E J A S I

2023-yil 27-oktabr kuni tasdiqlangan 12-01/694-sonli “Viloyat hokimligi va uning bo‘ysunuvidagi tashkilotlar tizimida korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash va chuqur tahlil qilish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan Yo‘l xarita”ning 11-bandi ijrosi

T/r	Shahar va tumanlar nomi	O‘tkazish		O‘tkazish uchun mas’ullar (<i>ma’ruza bilan ishtirok etadi</i>)
		vaqti	sanasi	
1	Navoiy shahar	10:00	20.11.2023-yil	Hokimlik, Prokuratura, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, Ichki ishlar boshqarmasi (bo‘limi), Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi, Adliya bo‘limi, Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi kotibiyati
2	Zarafshon shahar	14:00		
3	G‘ozg‘on shahar	16:00		
4	Karmana tumani	10:00	23.11.2023-yil	
5	Konimex tumani	14:00		
6	Qiziltepa tumani	10:00	27.11.2023-yil	
7	Navbahor tumani	14:00		
8	Uchquduq tumani	10:00	29.11.2023-yil	
9	Nurota tumani	14:00		
10	Tomdi tumani	10:00	02.12.2023-yil	
11	Xatirchi tumani	14:00		

Izox: Tuman va shahar hokimliklarining Tashkiliy-kadrlar guruhi tomonidan tashkillashtiriladi. Seminar-trening xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, hokimlik apparat xodimlari, korxonalar, tashkilot va muassasa rahbarlari ishtirok etishi tavsiya etiladi. O‘tkazilgan seminar natijasi to‘g‘risidagi fotolavhalar va bayonnoma viloyat hokimligiga taqdim etib boriladi (*hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtiriladi*).

*vaziyatdan kelib chiqib kelishidadi.

Navoiy viloyat hokimining
2023-yil 25-noyabrdagi
165-5-0-F/23-son farmoyishiga
2-ilova

2-ilova

2023-yil 9-noyabrdan 9-dekabrga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” profilaktik tadbiri davomida shahar va tuman hokimliklarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot (seminar-trening)larga tavsiya etilgan mavzular ro‘yxati

T/r	Mavzular nomi	Komponentlar
1.	Korrupsiya va poraxo‘rlik tabiati	Korrupsiya, poraxo‘rlik (korrupsion harakatlar) tushunchasi, shakllari va sabablari
2.	Korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va mexanizmlari Komplayens-nazorat tizimi tushunchasi, maqsadi, ishtirokchilari va tartibga solish asoslari. Xalqaro korrupsiyaga qarshi amaliyot.
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘llari	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan (viloyat hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi 235-5-0-Q/22-sonli, 22-oktabrgi 202-5-0-Q/22-sonli va 22-oktabrdagi 201-5-0-Q/22-sonli qarorlari) ichki idoraviy hujjatlar mazmun-mohiyati
4.	Korrupsion harakatlar uchun javobgarlik	O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari Korrupsion harakatlar uchun intizomiy javobgarlik Korrupsion harakatlar uchun jinoiy javobgarlik
5.	Korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati	Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurash vositasi sifatida Fuqarolarning huquqiy madaniyatini takomillashtirish; Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish Korrupsiya va poraxo‘rlikning mazmuni ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida; jamiyatdagi korrupsion harakatlarga munosabat
6.	Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha chek list to‘ldirish	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 24-fevraldagi 2-mh-sonli buyrug‘i (Nizom 3-ilovasi)ga asosan “Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha chek list” (to‘ldiriladi) yuritiladi. Yuridik xizmat Nizomning 6-bandi asosida.loyihalarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasining amalga oshirilishini tashkil etadi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning ularda korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlashga qaratilgan tahlilni o‘tkazadi

Izoh: Mavzular dolzarbligiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Navoiy viloyat hokimining
2023-yil 25-noyabrda
165-5-0-F/23-son farmoyishiga
3-ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini REYTING BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA INDIKATOR KO‘RSATKICHLARI

T/r	Indikatorlar	Asos
BIRINCHI YO‘NALISH		
Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi (jami 35 ball)		
1.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarning ishlab chiqilganligi va o‘z vaqtida yangilab borilishi		
1	<p>1.1.1 Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari (keyingi o‘rinlarda — davlat tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi va zaruratga qarab yangilanib borilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; - o‘dov-axloq qoidalari; - korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti; - manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom; - aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti; - xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma; - kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma; - ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma; - korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti; - korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti; - korrupsiyaviy xatti-harakatlar va o‘dov-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament; - davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom. 	Tasdiqlangan hujjatlarning elektron shakli ilova qilinadi
1.2 Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlarning joriy etilganligi		
1.2.1 Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari		

2	1.2.1.1. Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari: kamida 4 ta aloqa kanali (masalan, rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil)ning tashkil etilganligi.	Veb-sayt va boshqa OAVlardagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi
3	1.2.1.2. Rasmiy veb-saytda va boshqa OAVlarda korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari haqidagi ma'lumotlarning, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarning joylashtirilganligi.	Veb-sayt va boshqa OAVlardagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi
4	1.2.1.3. Rasmiy veb-saytda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisobotning mavjudligi (1-ilova tavsia).	Veb-saytdagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi
1.2.2. Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilishi		
5	1.2.2.1. Vakant o'rinlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish tizimining mavjudligi.	O'tkazilgan tanlov materiallari (suhbat yoki test bayonnomalari, video material) ilova qilinadi
6	1.2.2.2. Rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish, rotatsiya to'g'risidagi e'lonlar va axborotlarning mavjudligi (2-ilova tavsia).	Veb-saytdagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi
7	1.2.2.3. Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilganligi (3-ilova tavsia).	Korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganligini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro'yxati ilova qilinadi
8	1.2.2.4. Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatining mavjudligi.	Mazkur masalalarni tartibga soluvchi ichki reglament, xodimlar ro'yxati va statistik ma'lumotlar ilova qilinadi
1.2.3. Davlat tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash		
9	1.2.3.1. Xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagideklaratsiyani to'ldirish (4-ilova tavsia).	Ishga qabul qilishda, lavozimi o'zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda va yillik deklaratsiyani to'ldirgan xodimlarning kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan ro'yxati ilova qilinadi
10	1.2.3.2. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni (5-ilova tavsia).	Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan o'tkazilgan tekshiruvlar to'g'risida xulosalar soni ko'rsatiladi

11	1.2.3.3 Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va uni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan choralar (6-ilova tavsiya).	Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestri ilova qilinadi
12	1.2.3.4. Kontragentlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni (7-ilova tavsiya).	Kontragentlarni tekshirish reyestri, hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlar soni, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiy va salbiy xulosalar nusxasi ilova qilinadi
1.2.4. Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu tashkilot tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish		
13	1.2.4.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarning mavjudligi va sifatli to'ldirilganligi (8-ilova tavsiya).	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqida hisobot ilova qilinadi
14	1.2.4.2. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha rejadagi tadbirlarning bajarilganligi (9-ilova tavsiya).	Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o'z ichiga olgan) va uning ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi
15	1.2.4.3. Hisobot davrida aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar bo'yicha va monitoring natijalariga ko'ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilganligi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikning buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlarning (qonunchilik hujjatlari kesimida) aniqlanganligi. Davlat tashkilotlarida tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari (ichki hujjatlar kesimida), korrupsiyaviy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganlik holatlarining aniqlanganligi (10-ilova tavsiya).	Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni ro'yxatga olish reyestri, xizmat tekshiruvlari reyestri nusxasi ilova qilinadi. Aybdorlar aniqlangan holatlar soni band bo'yicha bo'lib ko'rsatiladi
16	1.2.4.4. Korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga qo'llanilgan jazolar (11-ilova tavsiya).	Kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar soni hamda ularga qo'llanilgan choralar ko'rsatilgan ro'yxat

IKKINCHI YO'NALISH**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi (jami — 30 ball)**

17	2.1. Davlat tashkilotining barcha funktsiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha baholash o'tkazilganligi (12-ilova tavsia).	Davlat tashkilotining birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati ilova qilinadi
18	2.2. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar (13-ilova tavsia).	Davlat tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurash dasturi ("Yo'l xaritasi") va uning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi

UCHINCHI YO'NALISH**Davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi (jami — 15 ball)**

19	3.1. Davlat tashkiloti rahbarining xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatining mavjudligi, uning xodimlar e'tiboriga yetkazilganligi, hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlarining ko'rib chiqilganligi.	Murojaat e'lon qilingan manba havolasi, tegishli hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlar bayonnomasi ilova qilinadi
20	3.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi tuzilganligi, uning zarur resurslar, shtat birliklari va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlanganligi.	Tashkilotning tuzilmasi Shtat birligi (apparatda) Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan xodimlar soni va buysunuvi Nizomda tegishli vakolatlarining taqdim etilganligi Alohida xizmat xonasining mavjudligi (mebel jihozlari, 1 ta seyf yoki metall shkaf, kompyuter, Printer, Telefon aloqasi, Internet tarmog'i)
21	3.3. Davlat tashkilotlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari tomonidan OAV va tadbirlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chiqishlar.	Ma'lumotlar va materiallar havolasi ilova qilinadi

TO'RTINCHI YO'NALISH

Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi (jami — 15 ball)		
4.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillardan xabardorligi		
22	4.1.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganlik holati hamda korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi (14-ilova tavsiya).	Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganligini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro'yxati, xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan yakuniy monitoring natijalari hamda ushbu talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat yakunlari ilova qilinadi
4.2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilganligi		
23	4.2.1. Hisobot yilida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi (15-ilova tavsiya).	Davlat tashkiloti tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy va maxsus o'qitishga doir ma'lumotlari (tasdiqlangan ro'yxat) va tahlil natijalari ilova qilinadi
24	4.2.2. Davlat tashkiloti xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar mavjudligi.	Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi va boshqa xodimlarni, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ilova qilinadi
25	4.2.3. Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish tizimining mavjudligi (16-ilova tavsiya).	Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi bo'yicha kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar ilova qilinadi

26	4.2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo'lgan funksiyalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun (17-ilova tavsiya).	Kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan o'qitish turlari, shakllari, o'qitilgan xodimlar soni hamda ularning lavozimi va bo'linmalari ro'yxati jadval shaklida ilova qilinadi
BESHINCHI YO'NALISH		
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi (5 ball)		
27	5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlar soni (18-ilova tavsiya).	Statistik ma'lumotlar (ishtirokchilar soni, hududiy qamrov) ilova qilinadi
28	5.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlarning qamrov darajasi.	
29	5.3. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tarqatilgan ko'rgazmali materiallar, qo'llanmalar, ijtimoiy audio va videoroliklar soni.	

Navoiy viloyat hokimining
2023-yil 25-noyabrdagi
165-5-0-F/23-son farmoyishiga
4-ilova
1-ilova tavsiya
NAMUNA

_____ning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari
haqidagi yillik
HISOBOT*

I. Umumiy ma'lumot

Mazkur bo'limda davlat tashkilotiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlarning umumiy soni hamda ularning hududlar va kelib tushgan aloqa kanallari kesimidagi soni ko'rsatilishi tavsiya etiladi.**

II. Ko'rib chiqish natijalari

Mazkur bo'limda ushbu murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari, xususan keltirilgan faktlar o'z tasdig'ini topgan murojaatlar soni hamda ular bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi ma'lumotlar keltirilishi tavsiya etiladi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha ko'rilgan choralar bayon qilinishi tavsiya etiladi.

hokim (yoki 1-o'rinbosar)

(imzo)

F.I.O

* Ma'lumot imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

** Agar korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan bo'lsa faqatgina murojaatlar kelib tushmaganlik fakti qayd etilishi maqsadga muvofiq.

2-ilova tavsiya
NAMUNA

_____ da hisobot davrida ishga qabul qilingan
(rotatsiya qilingan) rahbar kadrlar to'g'risidagi ma'lumot

_____ da 2023-yil davomida ishga qabul qilingan (rotatsiya qilingan) rahbar
kadrlar haqida ma'lumot*

T/r	Ishga qabul qilingan (rotatsiya qilingan) shaxsning F.I.O	Lavozimi**	Ishga qabul qilingan (rotatsiya qilingan) vaqt, buyruq raqami
1.	Anvarov Anvar Anvarovich	hokim *** o'rinbosari	2023-yil 2-mart 104-sht
2.	Anvarov Anvar Anvarovich	Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i	2023-yil 5-mart 105-sht
...			

Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (imzo) F.I.O

* Ma'lumot imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

** Ma'lumot apparat bo'yicha to'ldirilishi tavsiya etiladi.

3-ilova tavsiya
NAMUNA

“TASDIQLAYMAN”
Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
(imzo)

_____ da hisobot davrida korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat
shartnomasida tanishganligini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar
RO‘YXATI

2023-yil 15-dekabr holatiga

T/r	Ishga qabul qilingan shaxsning F.I.O	Lavozimi	Ishga qabul qilingan vaqt, buyruq raqami (buyruqga ko‘shimcha)
1.	Anvarov Anvar Anvarovich	Tashkiliy-kadrlar guruhi bosh mutaxassisi	2023-yil 5-mart 105-sht
2.	Anvarov Anvar Anvarovich	Bosh yuriskonsult	2023-yil 2-mart 104-sht
...			

Ma’lumot uchun: davrida _____ -nafar xodim faoliyat yuritgan

* Ma’lumot imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

4-ilova tavsiya
NAMUNA

“TASDIQLAYMAN”
Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
(imzo) F.I.O

_____ da 2023-yilda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirgan
xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumot

T/r	Ishga qabul qilingan shaxsning F.I.O	Lavozimi	Ishga qabul qilingan, lavozimi o‘zgargan vaqt, buyruq raqami	Deklaratsiya to‘ldirilgan sana/manfaatlar to‘qnashuvi mavjud*/mavjud emas	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvining qisqacha mazmuni va ko‘rilgan choralar
Yillik deklaratsiya					
1.	Anvarov Anvar Anvarovich	Moliya-iqtisod bo‘limi bosh mutaxassisi	2023-yil 5-mart 105-sht	10.01.2023-yil manfaatlar to‘qnashuvi mavjud	moliya-xo‘jalik bo‘limida xodimning turmush o‘rtog‘i ishlaydi. Xodimning turmush o‘rtog‘i, moliya-xo‘jalik bo‘limi nazorat qilmaydigan boshqa tuzilmaga o‘tkazildi.
Ishga qabul qilishdagi deklaratsiya					
1.	Anvarov Anvar Anvarovich	Bosh yuriskonsult	2023-yil 2-mart 104-sht	02.03.2023-yil manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emas	–
Lavozimi o‘zgarganda to‘ldirilgan deklaratsiya					
3.	Anvarov Anvar Anvarovich	Ishlar boshqarmasi boshlig‘i	2023-yil 1-aprel 128-sht	01.04.2023-yil manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emas	

Ma’lumot uchun: Tashkilotda hisobot davrida _____ -nafar xodim faoliyat yuritgan

* Ma’lumot imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

5-ilova tavsiya
NAMUNA

“TASDIQLAYMAN”
Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
(imzo) F.I.O

ga 2023-yilda ishga qabul qilish uchun
hujjat topshirgan nomzodlar haqidagi
MA'LUMOT

T/ro'tkazilgan umumiy tanlovlar soni	Hisobot davrida	Lavozim nomi	Lavozimga hujjat topshirgan nomzodlar soni	Tanlovdan o'tgan (tanlovning oxirgi bosqichiga kelgan) nomzod(lar)ning F.I.O	Tekshirish natijasi
1.	2 ta	Moliya-iqtisod bo'limi bosh mutaxassisi	15 ta	Anvarov Anvar Anvarovich	Ijobiy xulosa berildi
2.		Bosh yuriskonsult	20 ta	Anvarov Anvar Anvarovich	Salbiy xulosa berildi
...					

Ma'lumot imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

Faqatgina tanlovdan o'tgan yoki tanlovning oxirgi bosqichiga kelgan nomzodlar haqida ma'lumot to'ldiriladi.

8-ilova tavsia

**da korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
faoliyat ko'rsatishi to'g'risida hisobot**

Tashkilot nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma'sullar):	F.I.Sh., lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	2023-yil
Hisobot tayyorlangan sana:	15.12.2023-yil

T/r	Tadbir	Natijalar
II. Siyosatlar va protseduralar		
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	Tashkilotda hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo'lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
II. Shaxsiy namuna		
3.	Tashkilot rahbari va uning o'rinbosarlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda tashkilot tizimi rahbarlari va ularning o'rinbosarlarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish, tarkibiy bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Tashkilot rahbari va uning o'rinbosarlarining nomidan).	
5.	Tashkilot rahbari va uning o'rinbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	
III. Xavf-xatarlarni baholash		
